V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

SATTAROV ALOBERDI MO'MINJON O'G'LI

FILIFORM LEYBNITS ALGEBRALARINING PRE-DIFFERENSIALLASHLARI VA O'NG-KOMMUTATIV VA CHAP-SIMMETRIK ALGEBRALARNING TASNIFI

01.01.06 – Algebra

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UDK: 512.554.38

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Sattarov Aloberdi Mo‘minjon o‘g‘li
Filiform Leybnits algebralarining pre-differensiallashlari va o‘ng-kommutativ va chap-simmetrik algebralarning tasnifi 3

Саттаров Алоберди Муминжон угли
Пред-дифференцирование филиформных алгебр Лейбница и классификация право-коммутативных и лево-симметричных алгебр……………………………………………………………………….. 19

Sattarov Aloberdi Mominjon ugli
Pre-derivation of filiform Leibniz algebras and classification of right-commutative and left-symmetric algebras ………………………………….. 35

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…………………………………………………... 38

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

SATTAROV ALOBERDI MO‘MINJON O‘G‘LI

FILIFORM LEYBNITS ALGEBRALARINING PRE-DIFFERENSIALLASHLARI VA O‘NG-KOMMUTATIV VA CHAP-SIMMETRIK ALGEBRALARNING TASNIFI

01.01.06 – Алгебра

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/FM442 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www. kengash.mathinst.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xudoyberdiyev Abror Xakimovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Arzikulov Farhodjon Nematjonovich** fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
	Qurbanbaev Tuuelbay Qadirbayevich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Yangi O'zbekiston universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «23» may soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika Institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (159-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40.

Disertatsiya avtorefarati 2023 yil «10» may kuni tarqatiladi.

(2023 yil «10» maydagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.,
katta ilmiy xodim

B.A.Omirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunga kelib jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlarning aksariyati fundamental algebraning asoslarini tadqiq qilish masalalariga keltiriladi. Noassotsiativ algebralarni tasniflashga bo‘lgan qiziqishning ortishi ularning tuzilishi haqida kengroq ma’lumot olish bilan, geometrik tasnifi esa bunday algebralar ko‘philligining keltirilmas komponentalarini aniqlash imkonini berganligi bilan asoslanadi. Kichik o‘lchamli noassotsiativ algebralarning algebraik tasniflashning markaziy kengaytma metodi algebralarning strukturaviy nazariyasida eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlardan hisoblanadi. Noassotsiativ algebralarning tuzilish nazariyasi va tasniflash muammolari esa algebralarning muhim vazifalaridan bo‘lib kelmoqda.

Hozirgi kunda assotsiativ, Li, Yordan algebralari kabi klassik algebralarning umumlashmasi bo‘lgan noassotsiativ algebralarni o‘rganish katta qiziqishlarga sabab bo‘lmoqda. Leybnits algebralari Li algebralarining umumlashmasi bo‘lsa, o‘z navbatida chap-simmetrik algebralar assotsiativ algebralarning umumlashmasidir. Chap-simmetrik algebralar Novikov va assosimmetrik algebralarini ham o‘z ichiga olib, Li strukturasiga ega hisoblanadi. Kichik o‘lchamli algebralarni, jumladan chap-simmetrik, o‘ng-kommutativ va terminal algebralarni tavsif qilish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan funksional analiz, differentsial tenglamalar, statistik mexanika, fizika va raqamli iqtisodiyot fanlariga e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, oxirgi yillarda algebraik obyektlar matematikaning turli sohalarida, ayniqsa geometriya, topologiya va fizikada o‘zining yangi tatbiqlarini topishda davom etmoqda. Bugungi kunga kelib turli xil ko‘philliklardagi nilpotent va yechiluvchan algebralarni, jumladan Leybnits algebralarini tasniflash va kichik o‘lchamli noassotsiativ algebralarning algebraik hamda geometrik tasnifini aniqlash bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi. Noassotsiativ algebralarning algebraik va geometrik tasnifiga oid ilmiy natijalar olish, ularning differensiallshlari va differensiallashlarning turli xil umumlashmalarini aniqlash, ular orqali algebralar ko‘philliklarining yangi xossalarini yopish, hamda ushbu natijalarni matematikaning boshqa sohalarida qo‘llash fanning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g’risida»gi Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son «Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oxirgi yillar davomida naossotsiativ algebralar nazariyasida katta ilmiy natijalarga erishildi. Jumladan, Leybnits algebralari Sh. A. Ayupov, B. A. Omirov, I. S. Raximov, A. X. Xudoyberdiev, K. K. Masutova, L. Kamacho, X. R. Gomez, M. Ladra va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Bundan tashqari, M. Ladra, B. A. Omirov, A. X. Xudoyberdievning ishida xarakteristik nilpotent bo‘lmagan filiform Leybnits algebralari tasniflangan.

Skjelbred va Sundlar tomonidan nilpotent Li algebralari uchun ishlab chiqilgan markaziy kengaytma usuli bir qator nilpotent algebralarning tasnifini olish imkonini berdi. Mazkur usul berilgan ko‘phillikdagi kichik o‘lchamli algebralardan foydalanib, ulardan katta o‘lchamli algebralarni tasniflashdan iborat. Markaziy kengaytma usuli yordamida nilpotent besh o‘lchamli Yordan algebralari, besh o‘lchamli kommutativ algebralar, olti o‘lchamli Malsev algebralari, olti o‘lchamli binar Li algebralari V. De-Graf, A. Xegazi, X. Abdelvaxab, A. Kalderon, A. Martin, I. Kaygorodov, Yu. Popov va boshqalarning ishlarida tasniflangan.

Yordan algebrasining umumlashmasi bo‘lgan konservativ algebralari tushunchasi 1972 yilda Kantor tomonidan kiritilgan bo‘lib, bunday algebralar qator ayniyatlar yordamida aniqlanadi. Konservativ algebralarning muhim sinflaridan biri bo‘lib, Tits-Koxer-Kantor konstruksiyasining umumiy funktorini qo‘llovchi muhim algebralar terminal algebralar hisoblanadi. Bundan tashqari, terminal algebralar ko‘philligi Li algebralari, Leybnits algebralari va boshqa algebralar ko‘philliklarini umumlashtiradi. Hosil qiluvchisi bitta bo‘lgan obyektlarni o‘rganish abstrakt algebralar nazariyasining qiziqarli yo‘nalishi hisoblanadi. Ma’lumki, hosil qiluvchisi bitta bo‘lgan chekli tartibli gruppa mavjud va yagona. Algebralar orasida esa nilpotent assotsiativ, Yordan, Leybnits va Zinbiel algebralari ko‘philliklari uchun ushbu masalalar o‘rganilib, bunday algebralar uchun hosil qiluvchisi bitta bo‘lgan chekli o‘lchamli algebralar izomorfizm aniqligida mavjud va yagona ekanligi isbotlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V.I.Romanovskiy nomidagi matematika institutining «Operatorlar va noassotsiativ algebralarda lokal differensiallash va avtomorfizmlar, nochiziqli dinamik sistemalarda faza almashishlar va xaos» + «Yevklid va psevdo-Yevklid fazolaridagi egri chiziqlar va sirtlarning global invariantlari nazariyasi va uning mexanikaga tatbiqlari» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi (OT-F4-82+OT-F4-87, 2017-2019 yy.), hamda institutining «Leybnits algebralari tasvirlari» mavzusidagi yoshlar ilmiy-tadqiqot loyihasi (YoFA-Ftex-2018-79, 2018-2019 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi filiform Leybnits algebralarining pre-differensiallashlari hamda o‘ng-kommutativ, chap-simmetrik va hosil qiluvchisi yagona bo‘lgan terminal algebralarni tasniflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

filiform Leybnits algebralarining pre-differensiallashlari tasniflangan hamda kuchli nilpotent bo‘lmagan filiform Leybnits algebralari mavjudligi isbotlangan;

to‘rt o‘lchamli nilpotent o‘ng-kommutativ algebralarning algebraik va geometrik tasniflanlagan hamda bunday algebralar ko‘philliklarining keltirilmas komponentalari topilgan;

to‘rt o‘lchamli nilpotent chap-simmetrik algebralarning algebraik va geometrik tasniflari keltirilgan;

hosil qiluvchisi bitta bo‘lgan besh o‘lchamli nilpotent terminal algebralar tasniflangan.

Tadqiqotning obyekti filiform Leybnits algebralari; kichik o‘lchamli o‘ng-kommutativ va chap-simmetrik nilpotent algebralar; algebralarning pre-differensiallashlari; avtomorfizmlar va kogomologik gruppalardan iborat.

Tadqiqotning premeti pre-differensiallashlar; to‘rt o‘lchamli nilpotent chap-simmetrik algebralar; to‘rt o‘lchamli nilpotent o‘ng-kommutativ algebralar; besh o‘lchamli terminal algebralar.

Tadqiqotning usullari. Ishda assotsiativ bo‘lmagan algebralar nazariyasi usullari, strukturaviy va kogomologik usullar, markaziy kengaytma usuli, degeneratsiyalar, shuningdek invariantlar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

filiform Leybnits algebralarining pre-differensiallashlari tasniflangan, hamda kuchli nilpotent bo‘lmagan filiform Leybnits algebralari mavjudligi isbotlangan;

to‘rt o‘lchamli nilpotent o‘ng-kommutativ algebralar algebraik va geometrik tasniflanlagan hamda bunday algebralar ko‘philliklarining keltirilmas komponentalari topilgan;

to‘rt o‘lchamli nilpotent chap-simmetrik algebralarning algebraik va geometrik tasniflari keltirilgan;

hosil qiluvchisi bitta bo‘lgan besh o‘lchamli nilpotent terminal algebralar tasniflangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Dissertatsiyada qo‘llanilgan usullar va olingan natijalardan O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlari magistrantlari va doktorantlari uchun noassotsiativ algebralar bo‘yicha o‘tiladigan maxsus kurslarda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, dissertatsiya natijalari noassotsiativ algebralarning turli sinflarini algebraik va geometrik tasniflash, berilgan algebralar ko‘philligining keltirilmas komponentalarini topishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Matematik mulohazalarning qat’iyligi, algebralarning boshqa sinflaridagi ma’lum usullaridan, kogomologiyalar nazariyasi, algebralarining strukturaviy nazariyasidagi fundamental natijalardan foydalanilganligi bilan asoslanadi. Mathematica 12 dasturlash tilida yaratilgan maxsus dasturlar yordamida kichik o‘lchamli algebralarning differensiallashlari va degeneratsiyalariga doir natijalar tekshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati noassotsiativ algebralarning algebraik va geometrik tasnifiga oid natijalardan boshqa algebralar ko‘philliklarini tadqiq qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalardan noassotsiativ algebralarni tasniflash va ularning kogomologik gruppalari, hamda bunday algebralar ko‘philligining keltirilmas komponentalarini o‘rganish masalalarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Filiform Leybnits algebralarining pre-differensiallashlari va o‘ng-kommutativ va chap-simmetrik algebralarining tasniflari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

to‘rt o‘lchamli nilpotent o‘ng-kommutativ algebralarning algebraik va geometrik tasniflanlari hamda bunday algebralar ko‘philliklarining keltirilmas komponentalaridan AP08051987 raqamli «Dinamik sistemalarning noregulyar to‘plamlari» mavzusidagi xorijiy grant loyihasida kichik o‘lchamli algebralar ko‘philliklarini algebraik va geometrik tasniflarini olishda foydalanilgan (Sulaymen Demirel universitetining 2023 yil 4 apreldagi №10.3.37/411-sonli ma’lumotnomasi, Qozog‘iston). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi hosil qiluvchisi bitta bo‘lgan besh o‘lchamli nilpotent assosimmetrik algebralarning tasnifini va bunday algebralar ko‘philligidagi keltirilmas komponentalarni topish imkonini bergan;

hosil qiluvchisi bitta bo‘lgan besh o‘lchamli nilpotent terminal algebralar tasniflaridan xorijiy ilmiy maqolalarda (Journal of Algebra and its Applications, 21(2), 2022, 2250031, Algebra Colloquium, 29(3), 2022, 453-474 va Communications in Mathematics, 28(2), 2020, 231-251) kichik o‘lchamli konservativ algebralarning tasniflishda foydalanilgan. Ilmiy natijaning qo‘llanilishi kichik o‘lchamli konservativ algebralar va hosil qiluvchisi bitta bo‘lgan besh o‘lchamli nilpotent bikommutativ hamda kuchsiz assotsiativ algebralarning tasniflarini olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi xorijiy, 3 tasi respublika jurnallarida, shuningdek 6 ta ma’ruza tezislari ilmiy konferensiya materiallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qism, sakkizta bo‘limga bo‘lingan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 101 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, bu qismda dissertatsiya mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’ekti va premeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Filiform Leybnits algebralarining pre-differensiallashlari»** deb nomlangan birinchi bobida noassotsiativ algebralarning strukturaviy nazariyasiga oid bo‘lgan muhim natijalar keltirilgan bo‘lib, ularning differensiallashlari, kogomologik gruppalari, hamda markaziy kengaytma usullari keltirilgan. Birinchi bobning birinchi va ikkinchi paragraflarida filiform Leybnits algebralarining pre-diffrentsiallashlari tasniflanib, ushbu algebralar uchun kuchli nilpotent bo‘lish shartlari aniqlangan.

Berilgan L algebraning ixtiyoriy $x, y \in L$ elementlari uchun $d([x, y]) = [d(x), y] + [x, d(y)]$ ayniyatni qanoatlantiruvchi d chiziqli akslantirishga L algebraning differensiallashi deyiladi. Algebraning barcha differensiallashlari to‘plamini $Der(L)$ kabi belgilaymiz.

Algebraning nilpotentligi tushunchasini keltirish uchun quyi markaziy qatorni aniqlaymiz:

$$L^1=L, \qquad L^{k+1} = [L^k, L] + [L^{k-1}, L^2] +\ldots+ [L^2, L^{k-1}] + [L, L^k], \qquad k \geq 1.$$

1-ta’rif. Berilgan L algebra uchun shunday $s \in N$ natural son topilib, $L^s=0$ bo‘lsa, u holda L algebra nilpotent deyiladi.

2-ta’rif. Agar L algebraning ixtiyoriy $x, y, z \in L$ elementlari uchun quyidagi Leybnits ayniyati bajarilsa,

$$[x, [y, z]] = [[x, y], z] - [[x, z], y],$$

u holda L algebra Leybnits algebrasi deyiladi.

Quyidagi ta’rifda Leybnits algebrasining pre-differensiallashi tushunchasini kiritamiz.

3-ta’rif. Agar L Leybnits algebrasida aniqlangan $P : L \to L$ chiziqli akslantirish

$$[[x, y], z] = [[P(x), y], z] + [[x, P(y)], z] + [[x, y], P(z)], \qquad \forall\ x,y,z \in L$$

ayniyatni qanoatlantirsa, u holda ushbu chiziqli akslantirish pre-differensiallash deyiladi.

Leybnits algebralarining pre-differensiallashlari ularning differensiallash-larining umumlashmasi hisoblanadi. Barcha differensiallashlari nilpotent bo‘lgan Leybnits algebrasi *xarakteristik nilpotent* algebra deyiladi. Agarda Leybnits algebrasining ixtiyoriy pre-differensiallashi nilpotent bo‘lsa, u holda u *kuchli nilpotent* algebra deb nomlanadi. Leybnits algebrasining xar qanday differensiallashlari pre-differensiallash bo‘lganligi sababli kuchli nilpotent Leybnits algebrasi xarakteristik nilpotent bo‘ladi.

4-ta’rif. Agar L Leybnits algebrasi uchun $dim\ L^i = n - i$, $2 \le i \le n$ o‘rinli bo‘lsa, bunday algebra filiform Leybnits algebrasi deyiladi, bu yerda $n = dim\ L$.

Barcha n-o‘lchamli filiform Leybnits algebralari uchta kesishmaydigan sinflarga ajralishi X.R.Gomez va B.A.Omirovlarning ishlarida isbotlangan.

1-teorema. Har qanday n-o‘lchamli kompleks filiform Leybnits algebrasida shunday $\{e_1, e_2, \ldots, e_n\}$ bazis topilib, ushbu bazisda algebraning ko‘paytmasi quyidagilardan biri kabi bo‘ladi:

$F_1(\alpha_4, \alpha_5, \ldots, \alpha_n, \theta)$: $[e_1, e_1] = e_3$, $\quad [e_i, e_1] = e_{i+1}$, $\quad 2 \le i \le n-1$,

$[e_1, e_2] = \alpha_4 e_4 + \alpha_5 e_5 + \ldots + \alpha_{n-1} e_{n-1} + \theta e_n$,

$[e_j, e_2] = \alpha_4 e_{j+2} + \alpha_5 e_{j+3} + \ldots + \alpha_{n+2-j} e_n$, $2 \le j \le n-2$,

$F_2(\beta_4, \beta_5, \ldots, \beta_n, \gamma)$: $[e_1, e_1] = e_3$, $\quad [e_i, e_1] = e_{i+1}$, $\quad 3 \le i \le n-1$,

$[e_1, e_2] = \beta_4 e_4 + \beta_5 e_5 + \ldots + \beta_n e_n$, $[e_2, e_2] = \gamma e_n$,

$[e_j, e_2] = \beta_4 e_{j+2} + \beta_5 e_{j+3} + \ldots + \beta_{n+2-j} e_n$, $3 \le j \le n-2$,

$F_3(\theta_1, \theta_2, \theta_3)$: $[e_i, e_1] = e_{i+1}$, $\quad 2 \le i \le n-1$,

$[e_1, e_i] = -e_{i+1}$, $\quad 3 \le i \le n-1$,

$[e_1, e_1] = \theta_1 e_n$, $\quad [e_1, e_2] = -e_3 + \theta_2 e_n$, $\quad [e_2, e_2] = \theta_3 e_n$,

$[e_2, e_j] = -[e_j, e_2] \in \{e_{j+2}, e_{j+3}, \ldots, e_n\}$, $\quad 3 \le j \le n-2$,

$[e_i, e_j] = -[e_j, e_i] \in \{e_{i+j}, e_{i+j+1}, \ldots, e_n\}$, $3 \le i \le \left[\frac{n}{2}\right]$, $i \le j \le n-i$,

bu yerda keltirilmagan ko‘paytmalar nolga teng bo‘lib, juft n uchun $\alpha \in \{0,1\}$, toq n uchun esa $\alpha = 0$. Uchinchi sinf algebralar uchun Leybnits ayniyatini qanoatlantirish talab etiladi.

Dissertatsiya birinchi bobining ikkinchi paragrafida yuqoridagi teoremada berilgan filiform Leybnits algebralarining birinchi va ikkinchi sinflari uchun pre-diffrensiallashlarning tavsifi keltirilgan.

1-tasdiq. $F_1(\alpha_4, \ldots, \alpha_n, \theta)$ sinfdagi filiform Leybnits algebralarining pre-differensiallashlari quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$P(e_1) = \sum_{t=1}^{n} a_t e_t, \quad P(e_2) = (a_1 + a_2)e_2 + \sum_{t=3}^{n-2} a_t e_t + b_{n-1}e_{n-1} + b_n e_n, \quad P(e_3) = \sum_{t=2}^{n} c_t e_t,$$

$$P(e_{2i}) = ((2i-1)a_1 + a_2)e_{2i} + \sum_{t=2i+1}^{n} (a_{t-2i+2} + (2i-2)a_2\alpha_{t-2i+3})e_t, \quad 2 \le i \le \left[\frac{n}{2}\right],$$

$$P(e_{2i+1}) = c_2 e_{2i} + ((2i-2)a_1 + c_3)e_{2i+1} + \sum_{t=2i+2}^{n} (c_{t-2i+2} + (2i-2)a_2\alpha_{t-2i+2})e_t, \ 2 \le i \le \left[\frac{n-1}{2}\right],$$

bu yerdagi koeffitsientlar quyidagi munosabatlarni qanoatlantiradi:

$$(1 + (-1)^n)c_2 = 0, \ (a_1 - a_2)\alpha_4 = 0, \ (3a_1 - c_3)\alpha_4 = 0, \ c_2\alpha_t = 0, \qquad 4 \le t \le n-1,$$

$$\sum_{t=3}^{k} (a_{2k-2t+3} - c_{2k-2t+4} + a_2\alpha_{2k-2t+4})\alpha_{2t-2} = 0, \qquad 3 \le k \le \left[\frac{n-1}{2}\right],$$

$$(2a_1 + a_2 - c_3)\alpha_{2k} = \sum_{t=3}^{k} (a_{2k-2t+4} - c_{2k-2t+5} + a_2\alpha_{2k-2t+5})\alpha_{2t-2}, \qquad 3 \le k \le \left[\frac{n}{2}\right] - 1,$$

$$(a_2 - (k-3)a_1)\alpha_k = \frac{k-1}{2} a_2 \sum_{t=5}^{k} \alpha_{t-1}\alpha_{k-t+4}, \qquad 5 \le k \le n-2,$$

$$(a_2-(n-4)a_1)\alpha_{n-1}=a_2\sum_{t=3}^{\frac{n-2}{2}}(2t-3)\alpha_{n-2t+3}\alpha_{2t-1}+\sum_{t=2}^{\frac{n-2}{2}}(c_{n-2t+2}-a_{n-2t+1}+(2t-3)a_2\alpha_{n-2t+2})\alpha_{2t},$$

$$n-toq,$$

$$(2a_1-c_3-(n-6)a_1)\alpha_{n-1}=a_2\sum_{t=3}^{\frac{n-1}{2}}(2t-3)\alpha_{n-2t+3}\alpha_{2t-1}+\sum_{t=2}^{\frac{n-3}{2}}(c_{n-2t+2}-a_{n-2t+1}+(2t-3)a_2\alpha_{n-2t+2})\alpha_{2t},$$

$$n-juft.$$

2-tasdiq. $F_2(\beta_4, \ldots, \beta_n, \gamma)$ sinfdagi filiform Leybnits algebralarining pre-differensiallashlari quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi*:*

$$P(e_1)=\sum_{t=1}^{n}a_te_t,\qquad P(e_2)=b_2e_2+b_{n-1}e_{n-1}+b_ne_n,\qquad P(e_3)=\sum_{t=2}^{n}c_te_t,$$

$$P(e_{2i})=(2i-1)a_1e_{2i}+\sum_{t=2i+1}^{n}(a_{t-2i+2}+(2i-2)a_2\beta_{t-2i+3})e_t,\qquad 2\le i\le\left[\frac{n}{2}\right],$$

$$P(e_{2i+1})=((2i-2)a_1+c_3)e_{2i+1}+\sum_{t=2i+2}^{n}(c_{t-2i+2}+(2i-2)a_2\beta_{t-2i+2})e_t,\ 2\le i\le\left[\frac{n-1}{2}\right],$$

bu yerdagi koeffitsientlar quyidagi munosabatlarni qanoatlantiradi:

$$(c_3-2a_1)\beta_4=0,\quad (b_2-2a_1)\beta_4=0,\quad c_2\beta_t=0,\qquad 4\le t\le n-1,$$

$$\sum_{t=3}^{k}(a_{2k-2t+3}-c_{2k-2t+4}+a_2\beta_{2k-2t+4})\beta_{2t-2}=0,\qquad 3\le k\le\left[\frac{n-1}{2}\right],$$

$$(c_3-2a_1)\beta_{2k}=\sum_{t=3}^{k}(a_{2k-2t+4}-c_{2k-2t+5}+a_2\beta_{2k-2t+5})\beta_{2t-2},\qquad 3\le k\le\left[\frac{n}{2}\right]-1,$$

$$(b_2-(k-2)a_1)\beta_k=\frac{k-1}{2}a_2\sum_{t=5}^{k}\beta_{t-1}\beta_{k-t+4},\qquad 5\le k\le n-2,$$

$$(b_2-c_3-(n-5)a_1)\beta_{n-1}=a_2\sum_{t=3}^{\frac{n-1}{2}}(2t-3)\beta_{n-2t+3}\beta_{2t-1}+\sum_{t=2}^{\frac{n-3}{2}}(c_{n-2t+2}-a_{n-2t+1}+(2t-3)a_2\beta_{n-2t+2})\beta_{2t},$$

$$n\quad -toq,$$

$$(b_2-(n-3)a_1)\beta_{n-1}=a_2\sum_{t=3}^{\frac{n-2}{2}}(2t-3)\beta_{n-2t+3}\beta_{2t-1}+\sum_{t=2}^{\frac{n-2}{2}}(c_{n-2t+2}-a_{n-2t+1}+(2t-3)a_2\beta_{n-2t+2})\beta_{2t},$$

$$n\quad -juft.$$

Birinchi bobning uchinchi paragrafida kuchli nilpotent bo‘lmagan barcha filiform Leybnits algebralarining tasnifi keltirilgan.

3-tasdiq. Aytaylik, $L(\alpha_4, \ldots, \alpha_n, \theta)$ birinchi sinfdan olingan kuchli nilpotent bo‘lmagan filiform Leybnits algebrasi bo‘lib $\alpha_4=\ldots=\alpha_{n-1}=0$ bo‘lsin, u holda L quyidagi o‘zaro izomorf bo‘lmagan algebralardan biriga izomorf bo‘ladi:

$F_1(0, \ldots, 0, 0, 0)$, $F_1(0, 0\ldots, 0, 0, 1)$, $F_1(0, \ldots, 0, 1, 0)$, $F_1(0, \ldots, 0, 1, 1)$.

Qandaydir i $(4\le i\le n-1)$ uchun $\alpha_i\neq 0$ bo‘lgan holatda quyidagi natijani olamiz.

2-teorema. Aytaylik, L algebra $F_1(\alpha_4, \ldots, \alpha_n, \theta)$ sinfdan olingan algebra bo‘lib, n juft son bo‘lsin. L algebra kuchli nilpotent bo‘lishi uchun $(\alpha_4, \ldots, \alpha_n, \theta)$ parametrlar quyidagi qiymatlardan birini qabul qilishi zarur va yetarli:

i) $\alpha_4 \neq 0$ va $\alpha_k = (-1)^k C_{k-3}^2 \alpha_4^{k-3}, \quad 5 \leq k \leq n-2$;

ii) $\begin{cases} \alpha_{(2s-3)t+3} = (-1)^{t+1} C_t^{2s-2} \alpha_{2s}^t, & 3 \leq s \leq \dfrac{n-2}{2} \qquad 1 \leq t \leq \left[\dfrac{n-5}{2s-3}\right], \\ \alpha_j = 0, & j \neq (2s-3)t+3, \quad 4 \leq j \leq n-2; \end{cases}$

iii) $\alpha_{2i} = 0,\ 2 \leq i \leq \dfrac{n-2}{2}$;

bu yerda $C_n^p = \dfrac{1}{(p-1)n+1}\begin{pmatrix} pn \\ n \end{pmatrix}$ p – Katalan sonlari.

Ikkinchi sinf filiform Leybnits algebralari uchun ham yuqoridagi kabi natijalar olingan bo‘lib, $\beta_4, \beta_5, \ldots, \beta_n, \gamma$ parametrlarning qanday qiymatida $F_2(\beta_4, \beta_5, \ldots, \beta_n, \gamma)$ sinfdan olingan algebra kuchli nilpotent bo‘lishi aniqlangan.

4-tasdiq. Aytaylik, $L(\beta_4, \ldots, \beta_n, \gamma)$ ikkinchi sinfdan olingan kuchli nilpotent bo‘lmagan filiform Leybnits algebrasi bo‘lib $\beta_4 = \ldots = \beta_{n-1} = 0$ bo‘lsin, u holda L quyidagi o‘zaro izomorf bo‘lmagan algebralardan biriga izomorf bo‘ladi:

$$F_2(0, \ldots, 0, 0, 0),\ F_2(0, 0\ldots, 0, 0, 1),\ F_2(0, \ldots, 0, 1, 0).$$

3-teorema. Aytaylik, L algebra $F_2(\beta_4, \ldots, \beta_n, \gamma)$ sinfdan olingan kuchli nilpotent bo‘lmagan filiform Leybnits algebrasi bo‘lib, qandaydir i $(4 \leq i \leq n-1)$ uchun $\beta_i \neq 0$ bo‘lsin. Agar n juft son bo‘lsa, u holda quyidagi algebralardan biriga izomorf bo‘ladi:

$$F^{2s}_2(0, \ldots, 0, \beta_{2s}, 0, \ldots, 0, \beta_{n-1}, \beta_n, \gamma),\ \beta_{2s} = 1,\ 2 \leq s \leq \frac{n-2}{2},$$

$$F_2(0, \beta_5, 0, \beta_7, 0, \ldots, 0, \beta_{n-1}, \beta_n, \gamma).$$

Dissertatsiyada birinchi va ikkinchi sinfga tegishli bo‘lgan kuchli nilpotent bo‘lmagan filiform Leybnits algebralarining n toq son bo‘lgan holda ham tasniflari keltirilgan. Bundan tashqari, uchinchi sinf filiform Leybnits algebralari uchun $L(\theta_1, \theta_2, \theta_3)$ algebraning kuchli nilpotent bo‘lish masalasi $L(0, 0, 0)$ Li algebrasining kuchli nilpotentligini aniqlash masalasiga keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«O‘ng-kommutativ va chap-simmetrik algebralarning algebraik va geometrik tasnifi»** nomli ikkinchi bobida 4 o‘lchamli nilpotent o‘ng-kommutativ va chap-simmetrik algebralarni markaziy kengaytma usulidan foydalangan holda tasniflangan, hamda bunday algebralar ko‘philligining barcha keltirilmas komponentalari topilgan.

5-ta’rif. Agar B algebraning $\forall x, y, z \in B$ elementlari uchun $(x \cdot y) \cdot z = (x \cdot z) \cdot y$ ayniyat o‘rinli bo‘lsa, u holda B algebra o‘ng-kommutativ algebra deyiladi.

6-ta’rif. Agar N algebraning ixtiyoriy $x, y, z \in N$ elementlari uchun quyidagi ayniyat o‘rinli bo‘lsa,

$$(x \cdot y) \cdot z - x \cdot (y \cdot z) = (y \cdot x) \cdot z - y \cdot (x \cdot z),$$

u holda N algebra chap-simmetrik algebra deyiladi.

O‘ng-kommutativ va chap-simmetrik algebralarning kesishmasi Novikov algebrasidan iborat ekanligini ta’kidlash joiz.

G.Kantor 1972 yilda konservativ algebralarning bir qismi bo‘lgan terminal algebralarni kiritgan.

7-ta’rif. Agar T algebraning ixtiyoriy $a, b, x, y \in$ T elementlari uchun quyidagi ayniyatlar bajarilsa:

$$b \cdot (a \cdot (x \cdot y) - (a \cdot x) \cdot y - x \cdot (a \cdot y)) - a \cdot ((b \cdot x) \cdot y) + a \cdot (b \cdot x)) \cdot y +$$
$$+ (b \cdot x) \cdot (a \cdot y) - a \cdot (x \cdot (b \cdot y)) + (a \cdot x) \cdot (b \cdot y) + x \cdot (a \cdot (b \cdot y)) =$$
$$= -(\tfrac{2}{3}a \cdot b + \tfrac{1}{3}b \cdot a) \cdot (x \cdot y) + ((\tfrac{2}{3}a \cdot b + \tfrac{1}{3}b \cdot a) \cdot x) \cdot y + x \cdot ((\tfrac{2}{3}a \cdot b + \tfrac{1}{3}b \cdot a) \cdot y),$$

u holda T algebra terminal algebra deyiladi.

Aytaylik, $(A,\cdot)$ algebra va V – vektor fazo berilgan bo‘lsin. O‘ng-kommutativ (chap-simmetrik, terminal) algebralar uchun kotsikl tushunchasi mos ravishda quyidagi ayniyatlarni qanoatlantiruvchi $\theta : A\times A\rightarrow$ V bichiziqli akslantirishlar sifitida aniqlanadi:

- o‘ng-kommutativ algebralar uchun: $\theta (x\, y, z) = \theta (x\, z, y)$,
- chap-simmetrik algebralar uchun:

$$\theta (x\, y, z) - \theta (x, y\, z) = \theta (y\, x, z) - \theta (\mathrm{y}, x\, z),$$

- terminal algebralar uchun:

$$\theta (b, a \cdot (x \cdot y) - (a \cdot x) \cdot y - x \cdot (a \cdot y)) - \theta (a, (b \cdot x) \cdot y) + \theta (a \cdot (b \cdot x), y) +$$
$$+ \theta (b \cdot x, a \cdot y) - \theta (a, x \cdot (b \cdot y)) + \theta (a \cdot x, b \cdot y) + \theta (x, a \cdot (b \cdot y) =$$
$$- \theta (P^*(\mathrm{a}, b), x \cdot y) + \theta (P^*(\mathrm{a}, b) \cdot x, y) + \theta (x, P^*(a, b) \cdot y),$$

bu yerda $P^*(\mathrm{a}, b)= 2/3\ a \cdot b+ 1/3\ b \cdot a$.

Barcha kotsikllar fazosini $Z^2(A,\mathrm{V})$ kabi belgilaymiz.

Berilgan $f : A\rightarrow$V chiziqli almashtirish uchun $\delta f : A\times A\rightarrow$V bichiziqli akslantirishni $\delta f(x, y) = f(x\, y)$ kabi aniqlaymiz. Bunday δf bichiziqli akslantirishlar kochegaralar deyiladi va kochegaralar fazosi $\mathrm{B}^2(A,\mathrm{V})$ kabi belgilanadi.

Ta’kidlash joizki, $\mathrm{B}^2(A,\mathrm{V}) \subseteq \mathrm{Z}^2(A,\mathrm{V})$ va $\mathrm{H}^2(A,\mathrm{V}) = \mathrm{Z}^2(A,\mathrm{V}) / \mathrm{B}^2(A,\mathrm{V})$ faktor fazo ikkinchi kogomologik gruppa deyiladi.

Aytaylik, $Aut(A)$ berilgan A algebraning avtomorfizmlari gruppasi bo‘lsin. $Aut(A)$ gruppaning $\mathrm{Z}^2(A,\mathrm{V})$ dagi ta’sirini quyidagicha aniqlaymiz:

$$\phi\theta(x, y) = \theta(\phi(x), \phi(y)), \quad \phi \in Aut(A), \quad \theta \in \mathrm{Z}^2(A,\mathrm{V}).$$

Mazkur ta’sirga nisbatan $\mathrm{B}^2(A,\mathrm{V})$ fazo invariant bo‘lib, bu orqali $Aut(A)$ gruppaning $\mathrm{H}^2(A,\mathrm{V})$ da ta’siri aniqlanadi.

Aytaylik, A – m o‘lchamli o‘ng-kommutativ (chap-simmetrik, terminal) algebra bo‘lsin, V esa k o‘lchamli vektor fazo bo‘lsin. Berilgan θ bichiziqli akslantirish va $A_\theta = A \oplus$ V chiziqli fazo uchun $[-, -]_\theta$ bichiziqli ko‘paytmani quyidagicha aniqlaymiz:

$$[x + u, y + v]_\theta = x \cdot y + \theta(x, y), \text{ ixtiyoriy } x, y \in A, \ u, v \in \mathrm{V}.$$

Ushbu A_θ algebraning o‘ng-kommutativ (chap-simmetrik, terminal) algebra bo‘lishi uchun $\theta \in \mathrm{Z}^2(A,\mathrm{V})$ bo‘lishi zarur va yetarli. Hosil qilingan A_θ algebraga A algebraning V fazo bo‘yicha olingan k o‘lchamli markaziy kengaytmasi deyiladi.

O‘ng-kommutativ, chap-simmetrik va terminal algebralari uchun kotsikllar fazolari mos ravishda $Z^2_R(N,\mathbb{C})$, $Z^2_L(N,\mathbb{C})$, $Z^2_T(N,\mathbb{C})$ kabi belgilanadi.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida markaziy kengaytma orqali barcha to‘rt o‘lchamli o‘ng-kommutativ algebralarning tasnifi keltirilgan. Buning uchun o‘lchami to‘rtdan kichik bo‘lgan nilpotent algebralarning barcha markaziy kengaytmalarini topish zarur. O‘ng-kommutativ algebralar Novikov algebralarni o‘z ichiga olganligi hamda barcha nilpotent 4 o‘lchamli Novikov algebralari I. Karimjanov, I. Kaygorodov va A.Xudoyberdiyev tomonidan to‘liq tasniflanganligi uchun Novikov algebrasi bo‘lmaydigan o‘ng-kommutativ algebralarning tasnifini keltirish yetarli.

Bir o‘lchamli notrivial nilpotent o‘ng-kommutativ algebralar mavjud emas. Ikki o‘lchamli notrivial nilpotent o‘ng-kommutativ algebralari esa izomorfizm aniqligida yagona bo`lib, quyidagi ko‘paytma bilan beriluvchi algebraga izomorfdir:

$$N_0: e_1e_1=e_2.$$

Ushbu algebraning ixtiyoriy ikki o‘lchamli kengaytmasi Novikov algebrasi bo‘lishini tekshirish qiyin emas, shuning uchun Novikov bo‘lmagan 4 o‘lchamli nilpotent o‘ng-kommutativ algebralarni olish uchun 3 o‘lchamli algebralarni kengaytirish yetarli. Ixtiyoriy uch o‘lchamli nilpotent o‘ng-kommutativ algebralari esa quyidagi algebralardan biriga izomorf bo‘ladi:

$$N_1: e_1e_1=e_2, \qquad N_2: \quad e_1e_1=e_3,\ e_2e_2=e_3,$$
$$N_3: e_1e_2=e_3,\ e_2e_1=-e_3, \qquad N_4(\lambda): e_1e_1=\lambda e_3,\ e_2e_1=e_3,\ e_2e_2=e_3,$$
$$N_5: e_1e_1=e_2,\ e_2e_1=e_3, \qquad N_6(\lambda): e_1e_1=e_2,\ e_1e_2=e_3,\ e_2e_1=\lambda e_3.$$

Uch o‘lchamli o‘ng-kommutativ algebralar bir vaqtning o‘zida Novikov algebrasi ham bo‘lganligi uchun bu algebralarning markaziy kengaytmalarini aniqlashda Novikov algebrasi bo‘lmaydiganlarini hosil bo‘lishiga alohida ahamiyat qaratish kerak bo‘ladi. Buning uchun qiyidagi belgilashlarni kiritib olamiz.

Aytaylik, N Novikov (hususan, o‘ng-kommutativ) algebrasi va $\theta\in Z^2_R(N,\mathbb{C})$ bo‘lsin. U holda N_θ algebra Novikov algebrasi bo‘lishi uchun quyidagi ayniyat o‘rinli bo‘lishi zarur va yetarli:

$$\theta(x\cdot y, z)-\theta(x, y\cdot z)=\theta(y\cdot x, z)-\theta(y, x\cdot z), \quad x,y,z\in N.$$

Berilgan N o‘ng-kommutativ algebraning ikkinchi kogomologik gruppasini $\mathrm{H}^2_R(N)$ yuqoridagi shartni qanoatlantiruvchilarini esa $\mathrm{H}^2_N(N)$ kabi belgilaylik.

Aytaylik, A nilpotent algebraning $e_1, e_2, \dots, e_n$ bazisi berilgan bo‘lsin. U holda $\Delta_{ij}(e_l, e_m)=\delta_{il}\,\delta_{jm}$ kabi aniqlangan Δ_{ij}: $A\times A\to\mathbb{C}$ bichiziqli formalar to‘plami A dagi bichiziqli formalar fazosining bazisi bo‘lib, har qanday $\theta\in Z^2(A,\mathbb{C})$ element yagona tarzda $\theta=\sum\limits_{1\le i,j\le n} c_{ij}\Delta_{ij}$ kabi yoziladi, bu yerda $c_{ij}\in\mathbb{C}$.

Quyidagi jadvalda uch o‘lchamli nilpotent o‘ng-kommutativ algebralarning ikkinchi kogomologik gruppasining tasnifini keltiramiz (bu yerda $N_1=N_0\oplus\mathbb{C}$).

N	$\mathrm{H}^2_N(N)$	$\mathrm{H}^2_R(N)$
N_1	$\langle[\Delta_{12}], [\Delta_{13}], [\Delta_{21}], [\Delta_{31}], [\Delta_{33}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_1)\oplus\langle[\Delta_{32}]\rangle$
N_2	$\langle[\Delta_{12}], [\Delta_{21}], [\Delta_{22}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_2)\oplus\langle[\Delta_{13}], [\Delta_{23}]\rangle$
N_3	$\langle[\Delta_{11}], [\Delta_{21}], [\Delta_{22}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_3)\oplus\langle[\Delta_{13}], [\Delta_{23}]\rangle$
$N_4(\lambda)_{\lambda\neq0}$	$\langle[\Delta_{11}], [\Delta_{12}], [\Delta_{21}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_4(\lambda))\oplus\langle[\Delta_{13}], [\Delta_{23}]\rangle$

$N_4(0)$	$\langle[\Delta_{11}], [\Delta_{12}], [\Delta_{21}], [\Delta_{13}–\Delta_{31}–\Delta_{32}], [\Delta_{23}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_4(0)) \oplus\langle[\Delta_{31}+ \Delta_{32}]\rangle$
N_5	$\langle[\Delta_{12}], [\Delta_{13}–\Delta_{31}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_5) \oplus \langle[\Delta_{31}]\rangle$
$N_6(\lambda)_{\lambda\neq0}$	$\langle[\Delta_{21}], [(2– \lambda) \Delta_{13}+ \lambda (\Delta_{22}+\Delta_{31}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_6(\lambda)) \oplus \langle[\Delta_{22}+\Delta_{31}–\Delta_{13}]\rangle$
$N_6(0)$	$\langle[\Delta_{21}], 2[\Delta_{13}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_6(0)) \oplus \langle[\Delta_{22}+\Delta_{31}–\Delta_{13}],[\Delta_{32}]\rangle$

4-teorema. Aytaylik, *N* Novikov bo‘lmagan to‘rt o‘lchamli o‘ng-kommutativ algebra bo‘lsin, u holda N o‘zaro izomorf bo‘lmagan R_1 – R_{31} algebralardan biriga izomorf bo‘ladi (1-ilovaga qarang).

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi ikkinchi paragrafida esa barcha nilpotent to‘rt o‘lchamli chap-simmetrik algebralarning tasnifi olingan. O‘lchami to‘rtdan kichik bo‘lgan barcha nilpotent chap-simmetrik algebralar ham Novikov algebrasi bo‘lib, to‘rt o‘lchamli chap-simmetrik algebralarning tasnifini olish uchun yuqorida berilgan uch o‘lchamli algebralarning Novikov algebrasi bo‘lmaydigan chap-simmetrik kengaytmalarini topish kerak bo‘ladi.

Quyidagi jadvalda uch o‘lchamli nilpotent chap-simmetrik algebralarning ikkinchi kogomologik gruppasining tasnifini keltiramiz.

N	$\mathrm{H}^2_N(N)$	$\mathrm{H}^2_L(N)$
N_1	$\langle[\Delta_{12}], [\Delta_{13}], [\Delta_{21}], [\Delta_{31}], [\Delta_{33}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_1) \oplus \langle[\Delta_{23}]\rangle$
N_2	$\langle[\Delta_{12}], [\Delta_{21}], [\Delta_{22}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_2) \oplus\langle [\Delta_{31}], [\Delta_{32}]\rangle$
N_3	$\langle [\Delta_{11}], [\Delta_{21}], [\Delta_{22}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_3) \oplus\langle [\Delta_{31}–2\Delta_{13}], [\Delta_{32}–2\Delta_{23}]\rangle$
$N_4(\lambda)_{\lambda\neq0}$	$\langle [\Delta_{11}], [\Delta_{12}], [\Delta_{21}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_4(\lambda)) \oplus \langle [\Delta_{13}–\Delta_{31}–\Delta_{32}],$ $[\Delta_{23}+\lambda\Delta_{31}]\rangle$
$N_4(0)$	$\langle [\Delta_{11}], [\Delta_{12}], [\Delta_{21}], [\Delta_{13}–\Delta_{31}–\Delta_{32}], [\Delta_{23}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_4(0))$
N_5	$\langle [\Delta_{12}], [\Delta_{13}–\Delta_{31}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_5) \oplus \langle [\Delta_{22}+\Delta_{31}], [\Delta_{23}]\rangle$
$N_6(\lambda)$	$\langle [\Delta_{21}], [(2– \lambda) \Delta_{13}+ \lambda (\Delta_{22}+\Delta_{31}]\rangle$	$\mathrm{H}^2_N(N_6(\lambda)) \oplus \langle [\Delta_{22}+\Delta_{13}–\Delta_{31}]\rangle$

Dissertatsiya ikkinchi bobining ikkinchi paragrafining asosiy natijasi quyidagi teoremada keltiriladi.

5-teorema. Aytaylik, *N* to‘rt o‘lchamli Novikov bo‘lmagan chap-simmetrik algebra bo‘lsin, u holda *N* o‘zaro izomorf bo‘lmagan L_1 – $L_{24}(\lambda)$ algebralardan biriga izomorf bo‘ladi (2-ilovaga qarang).

Mazkur bobning uchinchi paragrafida nilpotent to‘rt o‘lchamli o‘ng-kommutativ va chap-simmetrik algebralar ko‘philliklarining barcha keltirilmas komponentalari topilgan.

Ushbu $GL_n(\mathbb{C})$ gruppaning barcha *n* o‘lchamli algebralar to‘plami $Alg_n(\mathbb{C})$ *ga* ta’sirini quyidagicha aniqlaymiz:

$$[x,y]_g:=g\,[g^{-1}x, g^{-1}y],$$

bu yerda $g\in GL_n(F)$ va $x,\ y\in L$. Berilgan L algebraning mazkur ta’sir ostidagi orbitasini $Orb(L)$ kabi uning Zarisskiy topologiyasi bo‘yicha yopilmasini $\overline{Orb(L)}$ kabi belgilaymiz.

8-ta’rif. Agar *M* algebra *L* algebraning orbitasi yopilmasida yotsa, u holda *L* algebra *M* algebraga degeneratsiyalanadi deyiladi va $L\to M$ kabi belgilanadi.

Agar ko‘phillikni qism to‘plamini ikkita notrivial yopiq qism to‘plamlar birlashmasi sifitida tasvirlash mumkin bo‘lmasa, u holda bunday qism to‘plam ko‘phillikning komponentasi deyiladi. Ko‘phillikning maksimal keltirilmas yopiq qism to‘plami keltirilmas komponentasi deyiladi. Ma’lumki, ixtiyoriy affin ko‘philligini yagona ravishda chekli sondagi keltirilmas komponentalarning birlashmasi sifatida yozish mumkin. Berilgan ko‘phillikdagi keltirilmas komponentalarni topish masalasi esa ushbu ko‘phillikdagi algebralar uchun tuzulgan degeneratsiyalar grafida eng yuqori satxda turivchi algebralarni aniqlashga ekvivalentdir.

Mazkur paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremalarda keltirilgan.

6-teorema. To‘rt o‘lchamli nilpotent o‘ng-kommutativ algebralar ko‘philligi $R_{12}(\lambda)$, $R_{18}(\alpha)$, $R_{27}(\lambda,\alpha)$, $R_{29}(\alpha)$ va $N_{20}(\alpha)$ sinflar orqali aniqlangan beshta keltirilmas komponentaga ega.

Boshqacha qilib aytganda to‘rt o‘lchamli nilpotent o‘ng-kommutativ algebralar ko‘philligining keltirilmas komponentalari quyidagilardan iborat bo‘ladi

$$\overline{\bigcup_{\lambda} Orb(R_{12}(\lambda))},\ \overline{\bigcup_{\alpha} Orb(R_{18}(\alpha))},\ \overline{\bigcup_{\lambda,\alpha} Orb(R_{27}(\lambda,\alpha))},$$

$$\overline{\bigcup_{\alpha} Orb(R_{29}(\alpha))},\ \overline{\bigcup_{\alpha} Orb(N_{20}(\alpha))}.$$

7-teorema. To‘rt o‘lchamli nilpotent chap-simmetrik algebralar ko‘philligi $L_{12}(\lambda)$, $L_{21}(\lambda)$ va $L_{23}(\lambda,\alpha)$ sinflar orqali aniqlangan uchta keltirilmas komponentaga ega, ya’ni to‘rt o‘lchamli nilpotent chap-simmetrik algebralar ko‘philligining keltirilmas komponentalari quyidagilardan iborat bo‘ladi

$$\overline{\bigcup_{\lambda} Orb(L_{12}(\lambda))},\ \overline{\bigcup_{\lambda} Orb(L_{21}(\lambda))},\ \overline{\bigcup_{\lambda,\alpha} Orb(L_{23}(\lambda,\alpha))}.$$

Dissertatsiyaning **«Hosil qiluvchisi bitta bo‘lgan besh o‘lchamli nilpotent terminal algebralarning tasnifi»** deb nomlangan uchinchi bobida hosil qiluvchisi bitta bo‘lgan barcha to‘rt va besh o‘lchamli nilpotent terminal algebralari to‘liq tasniflangan. Terminal algebralar barcha chap Leybnits algebralarini o‘z ichiga olganligini hisobga olib, ularni tasniflashda Leybnits algebrasi bo‘lmaganlarini keltirish kifoya.

